

SUDLAR FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI

Qo'chqarova Laylo Bahrom qizi

Umirzoqova Gulbahor Dostonbek qizi

Jizzax viloyati yuridik texnikum o'quvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14182005>

Annotatsiya. Ushbu maqolada odil sudlov tamoyillarining xususiyati, unda belgilangan qoidalar, odil sudlovga oid konstitutsiyaviy tamoyillarini belgilashda boshqa mamlakatlarning, shuningdek, xalqaro huquqning ijobiy tajribalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Odil sudlov, qonuniylik, sud hokimiyatining mustaqilligi, qonun va sud oldida tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi, sud ishlari yuritishning oshkoraligi, sud ishlari yuritiladigan til, himoyalanih huquqi.

BASIC PRINCIPLES OF COURT ACTIVITY

Abstract. This article describes the nature of the principles of justice, the rules defined in it, the positive experiences of other countries, as well as international law, in determining the constitutional principles of justice.

Key words: Justice, legality, independence of judiciary, equality before law and court, presumption of innocence, transparency of court proceedings, language of court proceedings, right to defense.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДА

Аннотация. В данной статье описывается сущность принципов справедливости, определенные в ней правила, положительный опыт других стран, а также международного права в определении конституционных принципов справедливости.

Ключевые слова: Правосудие, законность, независимость судебной власти, равенство перед законом и судом, презумпция невиновности, прозрачность судебного разбирательства, язык судебного разбирательства, право на защиту.

Odil sudlov tamoyillarining xususiyati shundan iboratki, unda belgilangan qoidalar nafaqat fuqarolar, mansabdor shaxslar hamda davlat organlari uchun, balki qonun chiqaruvchi idoralar uchun ham taalluqlidir. Qonun chiqaruvchi va qonunga o'zgartirish kirituvchi organlar o'z faoliyatlari davomida demokratik talablar hamda an'analar qatori ushbu tamoyillarga ham amal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining odil sudlovga oid konstitutsiyaviy tamoyillarini belgilashda boshqa mamlakatlarning, shuningdek, xalqaro huquqning ijobiy tajribalari hisobga olingan.

Odil sudlovni amalga oshirish va uning faoliyatini tashkil qilishda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi xalqaro hujjatlarning ilg'or g'oyalarini o'zida mujassam etganligi uchun ham g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hujjatlar dunyoning ko'pchilik davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ham e'tirof etilgan hamda undagi qoidalarga amal qilish majburiydir.

Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Qonuniylik.

Qonuniylik bu davlat organlari, fuqarolar, korxona, tashkilot va muassasalar hamda

mansabdor shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga so'zsiz rioya qilgan holda faoliyat olib borishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga binoan, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Shunga muvofiq, sudlov ishlarini ko'rib chiqishda sudyalari Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishlari shart.

Konstitutsiyamizning 16-moddasida belgilanganidek, «birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas».

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalar talablaridan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq normalariga amal qilish nazarda tutilgan. Xalqaro shartnoma normalariga zid bo'lgan qonunlar amalda sudyalari tomonidan qo'llanilmaydi.

Bu tamoyil odil sudlovni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etib, jinoiy va fuqarolik ishlarini yuritishni qonun talablariga mos va belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, Sudyalari mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sud mustaqilligining mazmuni, sudlov ishlarini yuritishda shunday imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadiki, bunda sud faoliyatiga tashqaridan tazyiq o'tkazilmasligi, birovlarining aralashmasligi, qonunga muvofiq adolatli, asosli qarorga kelishi ta'minlanishi zarur.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 136-moddasiga ko'ra, Sudyalari mustaqildirlar, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Odil sudlovni amalga oshirishda barchaning qonun va sud oldida tengligi tamoyili.

Konstitutsiyamizning 19-moddasiga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.». Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 11-moddasida: «Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdir. Korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.», – deb belgilangan.

Qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan qoidalarni barcha shaxslarga birdek qo'llashni talab etadi. Shu bois ham, mazkur tamoyil odil sudlovning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolarning sud himoyasida bo'lish huquqi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida Har kimga o'z huquq va

erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Sudlarga nafaqat konstitutsiyada belgilangan va kafolatlangan huquq va erkinliklar yuzasidan, balki qonun (qonunosti hujjatlari) yoki shartnoma- da ko'rsatilgan huquq va erkinliklar, shuningdek, manfaatlar bo'yicha ham murojaat qilinishi mumkin. Buzilgan yoki cheklangan huquq va erkinliklar tegishli tartibda konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy yoki xo'jalik sudlov ishlarini yuritish orqali tiklanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko'ra, Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi inson huquqlari sohasidagi e'tiborli xalqaro hujjatlarda, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (II-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (6-moddasining 2-bandi) normalarida o'z ifodasini topgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilining zamirida umumiy va keng tan olingan axloq normasi mavjud bo'lib, unga ko'ra, ayblanuvchining aybdorligi tasdiqlanishiga qadar, shaxs aybsiz deb hisoblanadi.

Ayblanuvchi unga nisbatan sud tomonidan qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi chiqarilmagunga qadar, aybdor deb hisoblanmaydi. Aybsizlik prezumpsiyasi qoidasiga ko'ra, mavjud barcha shubha va taxminlar to'liq aniqlanmaguncha ushbu holat ayblanuvchi foydasiga hal qilinadi, bu esa o'z navbatida, shaxsning ma'lum jinoyat bo'yicha aybsizligini ko'rsatadi.

Demak, ayblanuvchi aybining isbotlanmaganligi aybsizligining isbotidir. Ushbu tamoyil o'z mohiyatiga ko'ra, sudlovni amalga oshirishda nafaqat ayblanuvchining jinoyat protsessidagi huquqiy holatini, balki barcha ijtimoiy munosabatlar subyektidagi huquqiy holatini ham ifodalaydi.

Himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko'ra, Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida, ularga keng huquqlar belgilangan: ular o'zlarining nimada ayblanayotganligini bilish, o'zlariga qo'yilgan ayblovdan yuzasidan va ishning boshqa holatlari bo'yicha ko'rsatuv va tushuntirish berish; jinoiy harakatlarini isbotlovchi dalillar bilan tanishish, o'zlariga nisbatan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqlariga ega.

Himoyalash huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasiga gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyat yaratib berishni yuklaydi.

Sud ishlari yuritishning oshkoraligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 137-moddasiga ko'ra, Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, barcha fuqarolar u yoki bu sud ishlarini yuritish protsessida ishtirokchi bo'lmasada, sud ishlarining oshkora ko'rilishi tufayli sud muhokamasida qatnashishlari mumkin. Bunday chora-tadbirning belgilab qo'yilishi bir jihatdan, sudlar faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash, ikkinchi bir jihatdan, ushbu organlar faoliyati ustidan haqqoniy va samarali jamoatchilik nazorati amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, sudlar faoliyatining oshkoraligi ularning faoliyati, qabul qilgan qarorlari to'g'risida aholi va fuqarolarning bevosita xabardor bo'lish huquqini ham kafolatlaydi.

Sud ishlari yuritiladigan til.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 139-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilariga tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlangan. Tarjimonga ham o'z navbatida, ishni aniq hamda to'liq bajarish majburiyati yuklatiladi. Ushbu majburiyatni lozim darajada bajarmaslik, tarjimonning hatto jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun sabab bo'ladi. Ayblanuvchiga (gumondorga, sudlanuvchiga) tarjimon tomonidan barcha holatlarda ko'rsatilgan yordam bepul amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, mas'ul organlarning mansabdor shaxslari protsess ishtirokchilariga ularning huquqlarini tushuntirish majburiyatini olar ekanlar, shu jumladan, ularga tarjimon bilan ta'minlanish huquqi, shuningdek, protsess ishtirokchisining o'z ona tilida yoki yaxshi biladigan boshqa tilda tushuntirish va sudda so'zlash huquqiga ega ekanligi haqida ogohlantirishi shart.

Tergov hamda sud hujjatlari ushbu shaxslarga ular tushunadigan tilga tarjima qilinib, topshiriladi.

Bulardan tashqari, sud yuritilayotgan tilni yaxshi bilmaydigan shaxslarga dastlabki tergov yoki sud muhokamasi davrida, himoyachi bilan majburiy ta'minlanishi belgilangan.

REFERENCES

1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – 344-360-betlar.
2. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi. Harbiy-texnik instituti, 2019. 607-663-betlar.
3. Маматов Х.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yuristmedia markazi, 2018. 392-422 бетлар.
4. Конституционное право. Учебник // Авторский коллектив. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический университет, 2018 г. С. 486-506.
5. Ides A., May C. N., Grossi S. Examples & Explanations for Constitutional Law: Individual Rights. – Wolters Kluwer Law & Business, 2018. 599 pages.
6. Chemerinsky E. Constitutional law. – Aspen Publishers, 2019.
7. Inside Constitutional Law: What Matters and Why. Russell L. Weaver, Catherine Hancock, Steven I. Friedland, Richard D. Rosen – Aspen Publishers, 2009. Pages 3-46.